

Muhabbat Mehmonova**"Ota"**

Visit "[Ota](#)" on MotoLyrics.com

Davlat berib, minnat qilmas beminnatim,
Qadringizni goho bilib, goh bilmadim,
Validamdan yodgor qolgan, ey, qimmatim -
Yana bir bor sochim mayda o'ring, ota!
Baxtimizga doimo sog' bo'ling, ota!

Goho - onam, goho - akam, ham otamsiz,
Olam ichra mehribonim, bir olamsiz,
Bu dunyoda men suyangani bir odamsiz -
Yana bir bor sochim mayda o'ring, ota!
Baxtimizga doimo sog' bo'ling, ota!

Aytmasam ham sezib turar qalbim har zum,
Siz bor uchun urib turar yarim qalbim,
Yuksalaman har deganda Â«jigarbandim!Â» -
Yana bir bor sochim mayda o'ring, ota!
Mehribonim, baxtinga sog' bo'ling, ota!

Istasangiz, ming o'g'ilning o'rnini bosay,
Bir lahزالik shodligizga jonim osay,
Kechirdingiz hatto, otam, gunoh qilsak -
Yana bir bor sochim mayda o'ring, ota!
Baxtimizga doimo sog' bo'ling, ota!

Visit [Muhabbat Mehmonova](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.